

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

2022

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

1 SENTYABR – MUSTAQILLIK KUNI

31

YOSHDA



SENTYABR

№44



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 44-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 14 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Shohida Bekturdiyeva Shirin Sobirova	
ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA FORIY IZOFA VA SO`ZLAR	7
2. Gulshod Matkarimova	
IKKI BUYUK SHOIR IJODIDA VATAN MADHI	9
3. Qurbonova Shahlo, Xudimova Nodira	
ADABIYOTIMIZDA “KO`NGIL” MAVZUSI.....	11
4. Soliyeva Surayyoxon Sohibjon qizi	
ADABIYOT DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI MAVZUSINING O'QITILISHI VA O'QUVCHILARNI MAVZUGA QIZIQISHLARINI OSHIRISH YUZASIDAN TAVSIYALAR	12



АДАБИЁТ

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA FORIY IZOFA VA SO'ZLAR

Shohida Bekturdiyeva

Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi
44-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Shirin Sobirova

Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi
8-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mohir so'z ustasi Abdulla Qahhorning ayrim asarlarida keltirilgan forsiy izofa va so'zlarning qo'llanishi, ularning ma'nolari, qolaversa, adibning so'z qo'llash mahorati haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: hikoyachilik, forsiy izofa, fel'eton, roman, drama, maktub, qahramon, sinonimik birikma, ibora.

Abdulla Qahhor o'zbek hikoyachiligining buyuk darsg'alaridan hisoblanadi. Uning hikoyalari hajman katta bo'lmasa-da, o'quvchida teran tasavvur hosil qilib, fikrlashga undaydi.

A. Qahhor hikoyalarining o'qimishlilik, umrboqiylik sabablaridan biri shundaki, adib ularda xalq tilida o'zlashib ketgan forsiy so'zlardan unumli foydalangan. Masalan:

1. Kuzning o'rtalarida uning **shikast-rextlarini** tuzatib, Saidiy ko'chib ketdi.

2. Xalqda isyon o'ti tutunlana boshladi, **kulli yavmin batar**.

Yuqorida keltirilgan misollardagi shikast-rext, batar so'zlari sof forsha bo'lib, xalq tiliga o'zlashgan forsiy so'zlardir. Shikast so'zi shekastan- sinmoq, rext so'zi rixtan- kuymoq, to'qmoq fe'li bo'lib, adib uyning singan, to'kilgan joylarini tasvirlashda bu so'zlardan foydalangan. Shu yo'l bilan u fikrning badiiy ta'sirchanligini oshirgan.

Batar so'zi kulli yavmin arabiy so'zlar bilan birikib, o'zbekcha kun-kunda yomonroq degan ma'noni bildiradi. Forscha bad- yomon va tar-roq-sifat darajasi yasovchi qo'shimchalardan tashkil topgan.

Ijodkor raman, drama janrlari bilan birga fel'eton janrida ham muvaffaqiyat bilan ijod qilgan. Quyida adibning “maktub” fel'etonini forsiy izofa so'zlar, qo'shimchalari nuqtai nazaridan taxlil qilib ko'ramiz.

Yozuvchi ushbu fel'eton jumllarini tuzishda forsha izofiy birikmalardan juda ustalik nilan foydalangan. Fel'eton bosh qahramoni tilida bitilgan maktubda forsiy izofa va iboralar jumla, gapni icham holatga keltirish bilan birga, uning ta'sirchanligi ham oshirgan. Masalan: “Qiblagohimiz kamina tahsil ko'rib, mo'minlarning hudoning inoyati yo'liga boshlaguvchi ahhobi din va arbobi shariat bo'lmog'imga qo'shish va harakat qilur erdilar, az jumla, yeti yoshimda Said Murodxon eshonning muborak to'piqlaridan yalatib, maktabdor mulla Shaxobiddin Hazratga et va so'ngokimni topshirdilar.”

Ushbu gapda o'zbek tiliga o'zlashib qolgan qo'shimchalardan tashqari, ahhob din, ahhobi shariat kabi izofiy birimlar, qo'shish so'zi va o'zbek tili chiqish kelishigiga to'g'ri keluvchi az ko'makchisidan foydalanilgan.

Adib ahhobi din izofiy birikmasi o'rniga bemalol din yo'lidagi do'st, arbobi shariat o'rniga shariat peshvosi so'z birikmalarini, qo'shish o'rniga xarakat so'zining yana bir arabcha ko'rinishi sa'y so'zini, az jumla o'rniga jumladan so'zini qo'llashi mumkin edi.

Lekin xarakat so'zi arabcha bo'lib, unga yozuvchi sa'y so'zini sinonim qilsa, sof arabcha sinonimik birikma bo'lib qolar edi. Qo'shish-harakat sinonimikasi esa zullisonayn fors-arab sinonimlari birikmasini tashkil etib, uzukka ko'z qo'ygandek yarashib tushgan va bu adibning



fors-tojik tilini ham nechog`lik yuqori darajada bi;ganligidan darak beradi.

Xulosa shuki, ijodkor asarlarida forsiy so`z va ifodalarni o`z o`rnida qo`llab jumla bejirimligi va asar ixchamligiga erishgan. Shuningdek, adib hikoyanavislik qoidalariga rioya qilgani holda , qisqagina fel`etonda qahramonning to`liq xarakteri, maqsadini yoritib berib, fel`eton ko`rinishiga qahharona so`zlar injusi shodasini yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Qahhor.Asarlar.1-jild.Sarob.T.:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1987.
2. A.Qahhor.Asarlar.4-jild.Ayajonlarim.T.:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1988.
3. Ta`limga oid saytlar.



IKKI BUYUK SHOIR IJODIDA VATAN MADHI

Gulshod Matkarimova

Xorazm Viloyati Xiva shahar

10-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk bobokalonlarimiz Alisher Navoiy va Mirzo Bobur ijodida vatanning madh etilishi, ulardagi o'xshashliklar va o'ziga xosliklar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: g'azal, ruboiy, ijodkor, tuyg'u, epik asar, lirika, doston, badiiyat, vatan, hukmdor, jamiyat, xalq, g'urbat, g'ariblik, jamiyat.

Xalq, haqiqat va nafosat o'lmaydi, ularni ardoqlagan, kuylagan ulug'lar ham mangudir. Bobokalonlarimiz Navoiy va Bobur ham o'z asarlari orqali barhayotdir. Ular quyosh yang'lig' so'nmas sehrli badiiyat yaratdi. Bu ikki zamondosh shoir o'z asarlarida yuksak insoniy tuyg'ularni tarannum etdi. Mana shunday o'lmas tuyg'ulardan biri — bu Vatan tuyg'usidir. Har ikki ijodkor lirik she'rlarida ham, epik asarlarida ham Vatan mavzusini mahorat bilan ulug'ladi. Hatto Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn” singari ilmiy asari ham yuksak vatanparvarlik ruhida yaratildi. O'zini “vatanga rahnamoye” bilgan Navoiy “Saddi Iskandariy dostonida shunday degan edi:

Vatan tarkini bir nafas aylama,

Yana ranji g'urbat havas aylama...

Ajabmaski, Navoiyning bu durdona fikrlari Boburga bashorat bo'lib tuyulgan bo'lsa. Bobur hali yurt ilhomlarini o'z qalbiga to'la oshno qilmay turib, o'spirin chog'laridanoq qo'lga qilich tutganligi tarixdan yaxshi ma'lum. Boburning dilida saltanat ishq, temuriylarning yagona qudratli davlatini tiklash havasi jo'shib, tug'yon qilardi. U bu harakati bilan o'zaro qirg'in-qabohatlarga barham bermoqchi bo'ldi, lekin tarixning shafqatsiz to'lqini uni Vatanidan badarg'a etdi.

Shoir umr bo'yi Vatanni eslab, hijron o'tlarida yonib, g'ussaga ko'milib yashadi. Bobur so'nggi nafasigacha ona-yurt xayoli bilan yashadi. Shoir olis yurtlarda vatanini qo'msab, ko'plab ruboiylar yozdi. Muhimi shundaki, bu she'rlarning aksariyati bevosita Alisher Navoiydan ilhomlanib, ulug' shoir ruboiylariga tatabbu' sifatida yaratilgan.

Ulug' bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida so'z borar ekan, uning tariximizda, adabiyotimizda beqiyos o'rin tutganiga ahamiyat qaratish joiz. Ayniqsa, shoirning mumtoz she'riyatimizda yangicha ruh – Vatan va unga bo'lgan ishq ulug'vorligi yo'g'rilgan she'rlari diqqatga sazovordir.

Shu o'rinda adabiyotshunos olim V. Rahmonovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tishni joiz deb topdim: „Badiiy mahorat bobida biror o'zbek shoiri Bobur bilan bellasha olmaydi... uninag mumtoz she'riyatga dadil kiritgan tarjimayi hollik xususiyati ham Bobur she'riyatini alohida nurlantirib turadi. Ana shu keyingi xususiyat shoirning vatanparvarlik tuyg'ulariga jon bag'ishlaydi”.

Darhaqiqat, Bobur ijodiga nazar tashlar ekanmiz, ko'pgina she'rlari hasbi hol mazmunida bo'lib, mavzu jihatdan vatan va unga bo'lgan sog'inch asosiy o'ringa chiqadi. Uning ijodida o'z hayoti bilan baqamtilik sezilib turadi: shoh sifatida boshiga tushgan qiyinchiliklarni qog'ozga tushiradi. Zero, vatandan ayrolik, vataniga hukmdor bo'lolmagani shoir nazdida o'z, xato"laridan biri ekanligini yozadi:

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.

O'z yerin qo'yib, Hind sori yuzlandim,

Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Ko'rinadiki, Bobur hayotidagi turli qiyinchiliklar, qarama-qarshiliklar, garchi u zakovat bobida ham munosib tarbiya ko'rgan bo'lsa-da, uning aql charxini yanada o'tkirlab, donishmandga aylantirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, uning ko'pgina g'azallarida faylasufona ruh yaqqol namoyon bo'ladi:

Ulusning ta'nu ta'rifi manga, Bobur, barobardir,

Bu olamda o'zumni chun yamon – yaxshidin o'tkardim.

U Movarounnahrni tark etgach, ijodida Vatan motivi yanada kuchaydi, alohida hasratli mazmun



kasb etdi. Endilikda vatan tushunchasi ham, g‘urbat va g‘ariblik tushunchalari ham kengayadi, konkretlashadi. Shoirga ona yurtida qolgan do‘st-u yor, xesh-u aqrabolar va, hatto, tug‘ilgan o‘lka tabiati, noz-u ne‘matlari Vatanni eslatadi, uning bir bo‘lagi sifatida sog‘inch bilan orzu etiladi, ardoqlanadi.

Ma‘lumki, Bobur adolatli podshoh sifatida, hukmron bo‘lgan yurtlarda ham adolatli siyosat yuritdi. Xalqni ma‘rifatga, bunyodkorlikka chorladi. Ma‘naviy hayotga salbiy ta‘sir etuvchi omillardan voz kechib, jamiyat hayotida ularni ta‘qiqlab qo‘ydi. Hind xalqi hayoti va madaniyatining gullab-yashnashiga yuksak hissa qo‘shdi. O‘zining ilm-u irfoni bilan ma‘rifatni yanada rivojlantirdi. Ammo umr bo‘yi uning xayolini Vatan, unga bo‘lgan intilish band etdi:

Ne yerda bo‘lsang, ey gul andadur chun joni Boburning,
G‘aribing‘a tarahhum aylagilkim, andijoniydir.

Demak, Navoiy va Bobur ijodida vatan tuyg‘usi g‘oyat yuksak ahamiyat kasb etadi. Zero, ulug‘ bobokalonlarimiz o‘z yurtini, o‘zligini unutmagan chin o‘zbek farzandlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Hasan Qudratillayev. Bobur haqida uch maqola. Xurshid Davron kutubxonasi.
3. Amaldagi adabiyot darsliklari.



ADABIYOTIMIZDA “KO`NGIL” MAVZUSI

Qurbonova Shahlo

Xorazm viloyati Bog`ot tumanidagi
7-son umumiy o`rta ta`lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Xudimova Nodira

Xorazm viloyati Bog`ot tumanidagi
5-son umumiy o`rta ta`lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan bo`lmish Mavlono Lutfiy, Navoiy lirikasida ko`ngil masalasi va shoirlarimiz bu bilan qanday g`oyalarni ilgari surganligi haqida to`xtalib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** ko`ngil, umumturkiy til, ibora, g`azal, qit`a, tuyuq, radif, bayt, lirika, lug`at.

Ma`lumki, “ko`ngil” so`zi turkiy tildagi eng qadimiy va she`riyatda qadim davrlardan boshlab keng qo`llanilgan so`zlardan biridir. Bu so`zning badiiy ijodda, ayniqsa, she`riyatda faol poetik obraz sifatida qo`llanilishiga xalq og`zaki ijodi muhim ta`sir ko`rsatgan. “Ko`ngil” so`zi fors va arab tillaridan o`zlashgan dil, qalb va umumturkiy yurak so`zlari bilan ma`nodosh bo`lsa-da, lekin uning poetik ifoda maydoni ancha keng. Bu so`z umumturkiy bo`lib, kishining *his-tuyg`u*, *kechinmalari manbayi*; *yurak, qalb, dil* degan ma`nolarni bildiradi.

Ajdodlarimizda eng qadimgi davrlardan oq insonni dunyoni va o`zligini anglash ko`ngilga bog`liq, degan mifologik qarash yetakchilik qilgan. Jumladan, O`rxun-Enasoy yozuvlarida ham bu so`z qo`llanilgan va *orzu, tilak, istak* kabi ma`nolarni ifodalagan.

Ko`ngil so`zi Alisher Navoiy davrida ham juda faol qo`llanilgan. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati”ga ko`ra, “ko`ngul/ko`ngil” umumturkiy so`zi yordamida o`sha davridayoq “ko`ngul bermoq”, “ko`ngul bog`lamoq”, “ko`ngul olmoq”, “ko`nglini ovutmoq”, “ko`ngul qo`ymoq”, “ko`ngul g`ash qilmoq” singari bir qancha umumturkiy frazeologizmlar shakllangan. Ushbu “ko`ngil” komponentli umumturkiy iboralarning ma`lum qismi boshqa ko`plab shoirlar lirikasida ham keng qo`llangan.

Tarixdan ma`lumki, o`zbek mumtoz adabiyoti XV asrdan boshlab yangi taraqqiyot bosqichiga ko`tarilgan edi. Bu davrga kelib adabiyot hayotga yaqinlashdi, uning mavzular olami ancha kengaydi. Bu davrga kelib inson obrazi borgan sari to`laroq gavdalana boshladi. Bunday ruhiy tasvirlar, xususan, lirik qahramonning ko`ngil hayotidan bahs etish, ko`ngil haqiqatlarini yoritishda ko`proq ko`zga tashlanadi. Bu jihatdan XV asr o`zbek adabiyotining taniqli vakillari Mavlono Lutfiy, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiy kabi so`z ustalarining g`azallari muhim ahamiyat kasb etdi. Albatta, bu davrning barcha taniqli shoirlari ham ko`ngil haqida o`ziga xos tarzda qalam tebratgan, g`azal va ruboiylar, qit`a va tuyuqlar yaratgan edilar. Lekin Lutfiy o`z ijodi bilan ko`ngilni inson ma`naviy-ruhiy hayotining chinakam oynasiga aylantira olgan edi. Shoir Lutfiy ishq tufayli oshiqlik dunyosining sirlaridan xabardor bo`lgan ko`ngilning hol va savdolari haqida juda iztirob bilan mushohada yuritadi. Bu jihatdan Lutfiyning:

Meni shaydo qiladurg`on bu ko`nguldur, bu ko`ngul,

Xoru rasvo qiladurg`on, bu ko`nguldur, bu ko`ngul.

Matla`li g`azali muhim ahamiyat kasb etadi. Bu g`azalda shoirning lirik qahramoni pok, halol sevgisi uchun kurashadi, ana shu sevgi tufayli o`z boshiga tushadigan har qanday balolarga ham chidashga tayyor turadi. Lirik qahramonning ana shunday qat`iyati g`azalning har bayti oxirida takrorlanuvchi “qiladurg`on bu ko`nguldur, bu ko`ngul” radifi muhim g`oyaviy-estetik vazifa bajarish uchun xizmat qiladi.

Shoirning quyidagi baytida ko`ngil qo`ymoq iborasi sevis, muhabbat qo`yish hissigacha erk bermoq ma`nolarini bildirgan:

Ul pari yuzun ko`rub, jon hazor ixlos ila

Peshkash qildim, ko`ngul qo`ydum ul jon yuziga.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbek tilining izohli lug`ati. Besh jildlik. 2-jild. T.: 2006.
2. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug`ati. To`rt jildlik. 2-jild. T.: Fan, 1984.
3. A. Hayitmetov. Tabarruk izlar izidan. T.: Fan, 1979.



**ADABIYOT DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI MAVZUSINING O'QITILISHI
VA O'QUVCHILARNI MAVZUGA QIZIQISHLARINI OSHIRISH YUZASIDAN
TAVSIYALAR**

Soliyeva Surayyoxon Sohibjon qizi

Namangan viloyati Norin tumani 38-umumiy
o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot

fani o'qituvchisi

Telefon nomeri : +998993909274

Annotatsiya : Ushbu maqolada adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodi mavzusining o'qitilishi yuzasidan tavsiyalar beriladi va mavzu yuzasidan ilmiy mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar : xalq og'zaki ijodi, folklor, ertak, yozma manbalar, Mahmud Qoshg'ariy, maqollar, matallar, eng qadimgi yozma manbalar

Bugungi kun o'quvchisi badiiy asarlarni o'qishi va tahlil qilishi muammoli masalalardan biridir. Ularning badiiy asarlarga qiziqishi juda talab darajasida emas. Chunki bugungi kun o'quvchisi kitob varaqlab o'tirishdan ko'ra uyali aloqa vositasi yoki boshqa texnika vositalari orqali ma'lumot olishni o'zlariga juda qulay ko'radilar. Lekin kitobning ta'siri baribir o'zgacha ekanligini, adabiyot so'z san'ati ekanligini biz ustozlar har daqiqada o'z o'quvchilarimizga ta'kidlamog'imiz va buni misollar asosida tushuntirib bormog'imiz darkor. Xo'sh, nega ajdodlarimiz adabiyot shaydosi bo'lganlar-u, bizning yangi avlodlarimiz esa adabiyotni sevib, ardoqlashga oddiy vaqt topa olmaydilar. Axir o'sha bola ona allasi bilan uxlab, buvisining qiziqdan qiziq ertaklari ta'sirida ulg'aymadimi? Xalq og'zaki ijodi namunalari ham o'quvchilarga o'rgatishda charchamaslik kerak. Masalan, ba'zi bir viloyatlarda folklor an'analarga sodiqlik juda kuchli. Hatto yosh bolalar xalq dostonlarini do'mbira jo'rligida yoddan kuylaydilar. Bu, albatta, adabiyotning gullab-yashnab rivojlanishiga katta ta'sir etadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari har doim kishilar e'tiborida bo'lgan va bo'lib qoladi. Masalan, "Boychechak", "Chittigul", "Boshginam og'riydi" qo'shiqlarini, "Uch og'ayni botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Malikayi Husnobod" ertaklarini, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish" dostonlarini sevib tinglamagan o'zbek kitobxon bo'lmasa kerak.

Xalq og'zaki ijodi – mehnatkash omma ijodi, xalq san'atining boshqa, ya'ni musiqa, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at kabi turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir.

Xalq og'zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l-atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Biz ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zulm, adolatsizlikka qarshi nafrat tuyg'ularini ko'ramiz.

Og'zaki so'z san'ati «folklor» yoki «xalq og'zaki poetik ijodi» atamaları bilan ifodalanadi. «Folklor» atamasi ilk bor XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo'llangan bo'lib, «folk» – xalq va «lor» – bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni «xalq bilimi», «xalq donoligi», «xalq donishmandligi» demakdir. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi fan folklorshunoslik deb ataladi.

Xalq ijodiyotining yaratilishi va yashash tarzi og'zaki usulda amalga oshadi. Ya'ni bunday asarlar og'zaki ravishda ijro etilishi sababli ularning mazmuni va shakli o'zgarishi, unga yangi qismlar qo'shilishi yoki biron-bir qismi tushib qolishi mumkin.

O'zbek xalq og'zaki ijodi eng qadimiy san'atlardan biri bo'lib, u jahon xalqlari poetik ijodi taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. O'zbek folklorida turlar va janrlar quyidagicha tashkil topgan.

Epik tur – mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, doston va boshqalar.

Lirik tur – marosim folklorining deyarli barcha ko'rinishlari, bolalar folklorining ko'pgina turlari, qo'shiqning hamma xillari, ashula va shu kabilar.

Dramatik tur – og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin, askiya, xalq teatrlari va shu kabilar.

Maxsus tur – maqol, matal, topishmoq kabilar.

Xalq og'zaki ijodiga doir dastlabki manbalar birinchi o'zbek tilshunosi Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otat turk" asarida uchraydi. Bu asar orqali ijodkor o'n birinchi asrga doir folklor namunalarni ham bizga yetkazib bergan. Qo'shiq atamasi ham ilk bor Mahmud Qoshg'ariy asarida



uchraydi. "Erdam bashi til", ("Odobning boshi til"), "Uma kelsa, qut kelur" ("Mehmon kelsa, baraka keladi") kabi bugungi kunda hm o'z mavqeyini yo'qotmagan maqollar "Devoni lug'otat turk" asaridan o'rin olgan.

Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida misqollab to'plangan, ne-ne sinovlardan o'tgan, insonlarga hamisha madad bo'lib kelgan noyob xazinadir. Bizning vazifamiz ana shu xazinani ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitish hisoblanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar :

1. Adabiyot. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2018.

2. Adabiyot. Nilufar Rasulova. Toshkent. "Nurafshon ziyo yog'dusi". 2018.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000